



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

YANGILIKLAR MEDIADISKURSIDA TIBBIYOTGA OID TERMINLARNING QO‘LLANILISHI VA TARJIMA XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Kayumova Nilufar Xotam qizi
Andijon davlat tillar instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yangiliklar mediadiskursida qo‘llanilgan tibbiyotga oid terminologik birliklar lingvistik jihatdan tahlil qilinib, ular mazmuniy-tematik guruhlarga ajratilgan holda o‘rganiladi hamda ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar: kalkalash, ekvivalentlash, izohli tarjima va leksik moslashtirish usullari chog‘ishtirma asosda yoritiladi. Tadqiqot natijasida tibbiy terminlarning mediadiskursda informativ, pragmatik va ta’sirchanlik vazifalarini bajarishi hamda ularning tarjimasini auditoriyaga moslashuv jihatidan muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: mediadiskurs, tibbiy terminologiya, tarjima strategiyalari, kalkalash, ekvivalentlash, izohli tarjima, lingvistik tahlil, chog‘ishtirma tadqiqot.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В НОВОСТНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Каюмова Нилуфар Хотам кизи

Андижанский государственный институт иностранных языков, преподаватель

Аннотация

В данной статье проводится лингвистический анализ терминологических единиц медицинской сферы, используемых в новостном медиадискурсе, с их последующей классификацией по семантико-тематическим группам. Также на сопоставительной основе рассматриваются основные стратегии, применяемые при переводе данных терминов с английского языка на узбекский, включая калькирование, эквивалентный перевод, пояснительный перевод и лексическую адаптацию. В результате исследования обосновывается, что медицинские термины в медиадискурсе выполняют информативную, прагматическую и воздействующую функции, а их перевод имеет важное значение с точки зрения адаптации содержания к целевой аудитории.

Ключевые слова: медиадискурс, медицинская терминология, переводческие стратегии, калькирование, эквивалентность, пояснительный перевод, лингвистический анализ, сопоставительное исследование.

THE USE AND TRANSLATION FEATURES OF MEDICAL TERMINOLOGY IN NEWS MEDIA DISCOURSE (A CASE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Kayumova Nilufar Xotam qizi

Andijan State Institute of Foreign Languages, Lecturer

Abstract

This article provides a linguistic analysis of medical terminological units used in news media discourse, examining them through classification into semantic-thematic groups. It also explores, on a comparative basis, the main strategies employed in the process of translating such terms from English into Uzbek, including calquing, equivalence, explanatory translation, and lexical adaptation. The findings of the study demonstrate that medical terms in media discourse perform informative, pragmatic, and persuasive functions, and that their translation plays a crucial role in adapting content to the target audience.

Keywords: media discourse, medical terminology, translation strategies, calque, equivalence, explanatory translation, linguistic analysis, comparative research.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yangiliklar mediadiskursi jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda muayyan voqea-hodisalarni talqin etishda muhim kommunikativ maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Mediadiskurs tarkibida qo‘llanilayotgan til birliklari, xususan, terminologik qatlam mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri

hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda, ayniqsa, global pandemiya va sogʻliqni saqlash bilan bogʻliq dolzarb muammolar fonida tibbiyotga oid terminlarning ommaviy axborot vositalarida qoʻllanilishi sezilarli darajada ortdi. Natijada avval tor doiradagi mutaxassislar nutqiga xos boʻlgan koʻplab tibbiy atamalar keng jamoatchilik tiliga koʻchdi hamda mediadiskursning muhim komponentiga aylandi. Bu esa mazkur terminlarning turli tillardagi ifodalanishi, semantik yuklamasi va funksional xususiyatlarini oʻrganishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Mediadiskurs ommaviy axborot vositalari orqali shakllangan va keng auditoriyaga moʻljallangan kommunikativ makon sifatida talqin etiladi. Bu turdagi diskursda axborotni yetkazish bilan birga, auditoriyaga taʼsir oʻtkazish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va voqelikni bayon etish kabi pragmatik maqsadlar ustuvor hisoblanadi.

Mediadiskurs tushunchasi lingvistik tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar asosida izohlanadi. Jumladan, T.A. van Deyk mediadiskursni ijtimoiy ong va ideologiyalarni shakllantiruvchi muhim kommunikativ vosita sifatida baholaydi hamda unda til birliklarining tanlanishi va qoʻllanishi maʼlum maqsadga yoʻnaltirilganligini taʼkidlaydi [5; 6–7]. Shu bilan birga, N. Feyrklauf mediadiskursni ijtimoiy amaliyot bilan uzviy bogʻliq boʻlgan diskursiv jarayon deb hisoblaydi, unda til, hokimiyat va ideologiya oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarga alohida eʼtibor qaratadi [2; 23].

Mediadiskursning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu — terminologik qatlam boʻlib, u axborotning aniqligi, ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Ayniqsa, tibbiyotga oid terminlar yangiliklar matnida informativ va pragmatik vazifani ham bajaradi. Bunda terminlar orqali murakkab ilmiy tushunchalar ommaviy auditoriyaga moslashtiriladi, yaʼni soddalashtiriladi yoki izohlanadi. Tibbiy terminologiya masalalari tilshunoslikda alohida yoʻnalish sifatida keng oʻrganilgan. Xususan, M.T. Kebre terminologiyani maxsus bilim sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi lingvistik tizim sifatida izohlaydi va uning kommunikativ vazifasiga urgʻu beradi [1; 45]. Uning fikricha, terminlar nomlash vositasi boʻlish bilan birga, bilimni uzatish usuli hamdir. Shuningdek, J.C. Sager terminologiyani tilning maxsus funksional qatlami sifatida baholab, uning standartlashuvi va aniqligini asosiy xususiyat sifatida koʻrsatadi [4; 30]. Tibbiy terminologiya aynan shu jihatlar bilan ajralib turib, unda bir maʼnolilik (monosemiya) va aniqlik yuqori darajada boʻlishi talab etiladi.

Mediadiskurs doirasida tibbiy terminlarning qoʻllanishi esa oʻziga xos xususiyatlarga ega. Chunki bu yerda ilmiy terminlar ommaviy auditoriyaga moslashtiriladi. Bu jarayonni P. Nyumark tarjima va adaptatsiya strategiyalari orqali tushuntirib, terminlarning transliteratsiya, kalka va izohlash orqali yetkazilishini qayd etadi [3; 103]. Ayniqsa, global sogʻliqni saqlash muammolari davrida (masalan, pandemiya sharoitida) koʻplab terminlar toʻgʻridan-toʻgʻri boshqa tillarga oʻzlashadi. Bundan tashqari, V. Vinogradov terminlarning stilistik jihatdan neytralligi masalasini koʻtarib, ularning ilmiy nutqda asosiy axborot tashuvchi birlik ekanligini taʼkidlaydi [7; 56]. Biroq mediadiskursda ushbu neytrallik qisman buzilib, terminlar baʼzan ekspressiv yoki manipulyativ maʼno yuklamasini ham olishi mumkin.

Zamonaviy medialingvistika tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, tibbiy terminlar yangiliklar diskursida axborot berish, auditoriyaga taʼsir oʻtkazish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois ularning chogʻishtirma tahlili turli tillarda qanday lingvistik va pragmatik strategiyalar qoʻllanilishini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil. Zamonaviy mediadiskursda tibbiyotga oid terminologik birliklarning qoʻllanilishi va ularning tarjima xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, globallashtirish sharoitida ommaviy axborot vositalarining tilga, xususan, terminologik qatlamga koʻrsatayotgan taʼsirini tahlil qilishni maqsad qiladi. Bugungi kunda yangiliklar diskursi axborot yetkazish bilan birga, keng auditoriyaga ilmiy tushunchalarni soddavariy va tushunarli tarzda taqdim etish vazifasini ham bajaradi. Shu bois tibbiyotga oid terminlarning mediamatnlarda faol qoʻllanilishi ularning lingvistik va pragmatik jihatdan oʻrganilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Xususan, ingliz tilidagi yangilik matnlarida qoʻllanilgan tibbiy terminlarning oʻzbek tiliga tarjima qilinish jarayonini tahlil qilish orqali terminlarning semantik xususiyatlari, ularning struktur-semantik moslik darajasi hamda tarjimada qoʻllaniladigan strategiyalarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Shuning uchun ushbu ishda tibbiy terminlar tematik jihatdan tasniflanib, ularning oʻzbek tilidagi muqobillari va tarjima usullari chogʻishtirma tahlil asosida yoritildi:

The deadly rectal cancer warning signs no one should ignore: Bleeding, bloating, lethargy and pencil-thin stools.

It's often dubbed the "taboo cancer" such is the level of embarrassment associated with discussing it. But experts say speaking about rectal cancer, a form of bowel cancer which affects the final few inches

of the large intestine, is a vital weapon in the fight to stop people dying from the disease. Earlier this year, Dawson's Creek star James Van Der Beek passed away from rectal cancer aged just 48. Before he died, and in a bid to raise awareness, he revealed in an interview that he had experienced changes to his bowel habits but was unaware this was a tell-tale sign of the cancer. Along with other cancers that start in the bowel and colon, rectal — also known as colorectal cancer — kills 17,000 people in the UK every year. It is typically diagnosed at a late stage, when treatment is difficult, because it causes few symptoms early on — which are often mistaken for less serious problems such as irritable bowel syndrome (IBS). It is a frightening disease — made all the more so by the fact that people are too embarrassed to talk about their symptoms, and doctors still don't know what's causing the uptick in cases in young people. Here the Daily Mail outlines the red-flag warning signs that could be the difference between catching rectal cancer early and delaying treatment until it's too late.

Keltirilgan yangilik matni tibbiyot sohasiga oid bo'lib, unda ushbu yo'nalishga xos bo'lgan bir nechta terminologik birliklar qo'llangan. Tadqiqot jarayonida ushbu terminlarni dastlab mazmuniy-tematik xususiyatlariga ko'ra tasnifladik: kasallik nomlari, simptomlar, anatomik tushunchalar hamda diagnostika va davolash jarayonlariga oid birliklar sifatida guruhlariga ajratdik:

Kasallik nomlari: rectal cancer, bowel cancer, colorectal cancer, irritable bowel syndrome.

Simptomlar: bleeding, bloating, lethargy, pencil-thin stools, changes to bowel habits.

Anatomik terminlar: rectum, large intestine, bowel, colon.

Tibbiy jarayon va tushunchalar: symptoms, treatment, diagnosed.

Ushbu yangilik matnida uchraydigan tibbiy terminlar lingvistik jihatdan tahlil qilinarkan, ularni tematik tasniflash bilan birga, o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida qo'llanilgan usullarni ham aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu terminlar mazmuniy guruhlariga ajratilgan holda, ularning o'zbek tilidagi muqobillari hamda tarjima usullari chog'ishtirma tahlil asosida yoritildi:

1. Kasallik nomlari o'zbek tiliga tarjima qilinganda kalkalash usuli qo'llanilib, ingliz tilidagi komponentlar o'zbek tiliga semantik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri ko'chiriladi, buni quyidagi jadvalda keltiramiz:

№	Disease terminology (English)	Kasallik nomlari (o'zbek tilida)
1	Rectal cancer	To'g'ri ichak saratoni
2	Bowel cancer	Ichak saratoni
3	Colorectal cancer	Yo'g'on ichak va to'g'ri ichak saratoni
4	Irritable bowel syndrome	Qo'zg'aluvchan ichak sindromi

2. Simptomlarni tarjima qilishda, asosan, izohli tarjima (descriptive translation) va semantik ma'nolarini kengaytirish usullari qo'llaniladi. Xususan, "pencil-thin stools" birikmasi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emasligi sababli, uning ma'nosi izoh bilan ochib beriladi:

№	Symptom terminology (English)	Simptomlar (o'zbek tilida)
1	Bleeding	Qon ketishi
2	Bloating	Qorin dam bo'lishi
3	Lethargy	Holsizlik, lanjlik
4	Pencil-thin stools	Ingichka najas (qalamga o'xshash shakldagi najas)
5	Changes to bowel habits	Ichak faoliyatidagi o'zgarishlar

3. Anatomik terminlar tarjimasida to'liq leksik ekvivalentlik kuzatiladi. Ushbu terminlar xalqaro tibbiyotga mos kelgani sababli, ularning o'zbek tilidagi variantlari, albatta, keltiriladi:

№	Anatomical terminology (English)	Anatomik terminlar (o'zbek tilida)
1	Rectum	To'g'ri ichak
2	Large intestine	Yo'g'on ichak
3	Bowel	Ichak
4	Colon	Yo'g'on ichak

4. Tibbiy jarayon va tushunchalar tarjimasida ekvivalentlash va qisman variantlilik kuzatiladi. Masalan, "symptoms" termini simptomlar (xalqaro termin) va alomatlar (milliy variant) shaklida qo'llanishi mumkin. Bu esa mediadiskursda auditoriyaga moslashuv (adaptatsiya) strategiyasining mavjudligini ko'rsatadi.

№	Medical processes and concepts (English)	Tibbiy jarayon va tushunchalar (o'zbek tilida)
1	Symptoms	Simptomlar
2	Treatment	Davolash

3	Diagnosed	Tashxis qo'yilgan
---	-----------	-------------------

Umuman olganda, ingliz tilidagi tibbiy terminologik birliklarning o'zbek tiliga tarjimasini chog'ishtirma tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon lingvistik va pragmatik omillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Xususan, kasallik nomlari, anatomik birliklar, simptomlar hamda tibbiy jarayonlarni ifodalovchi terminlar tarjimasida semantik aniqlikni saqlash bilan birga, ularni o'zbek tilining leksik-semantik tizimiga moslashtirish muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, eng ko'p qo'llaniladigan strategiyalar qatoriga kalkalash, to'liq yoki qisman ekvivalentlash, izohli tarjima hamda leksik moslashtirish kiradi.

Kalkalash usuli, ayniqsa, kasallik nomlari va anatomik terminlar tarjimasida yuqori hisoblanadi, chunki ushbu birliklar xalqaro tibbiyot sohasiga asoslangan holda bo'lib, ularning tarkibiy qismlari o'zbek tilida ham semantik moslikka ega. Shu bilan birga, simptomlarni ifodalovchi terminlar tarjimasida ko'proq izohli va deskriptiv yondashuv uchraydi, zero bunday birliklar ko'pincha metaforik yoki kontekstga bog'liq ma'noni ifodalaydi. Bundan tashqari, tahlil jarayonida ayrim terminlarning ikki xil: xalqaro va milliy variantlarda qo'llanishi kuzatildi (masalan, symptoms — simptomlar/alomatlar). Bu esa mediadiskurs doirasida auditoriyaning bilim darajasi va kommunikativ ehtiyojlariga moslashish zaruratini ko'rsatadi. Demak, tarjima jarayonida terminning lug'aviy ma'nosini yetkazish bilan birga, uning funksional-uslubiy xususiyatlarini ham hisobga olish muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminologiyani chog'ishtirma o'rganish mediadiskursda ilmiy axborotni aniq, tushunarli va ta'sirchan yetkazish usullarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, tibbiy matnlar tarjimasida nazariyasi va amaliyotini boyitish, shuningdek, o'zbek tilida tibbiy terminologiyaning standartlashuvi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cabré M. T. *Terminology: Theory, Methods, and Applications*. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – P. 45.
2. Fairclough N. *Media Discourse*. – London: Edward Arnold, 1995. – P. 23.
3. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988. – P. 103.
4. Sager J. C. *A Practical Course in Terminology Processing*. – Amsterdam: John Benjamins, 1990. – P. 30.
5. Van Dijk T. A. *Discourse and Power*. – London: Palgrave Macmillan, 2008. – P. 6.
6. Виноградов В. В. *Русский язык (грамматическое учение о слове)*. – Москва: Наука, 1972. – P. 56.